

NAVOIY ZIYOSIDAN NUR OLGAN USTOZ

Faridaxon KARIMOVA,
filologiya fanlari doktori, prof. v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676899>

Alisher Navoiyning umuminsoniy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan umrboqiy asarlari kishilik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotida alohida bir bosqichni tashkil etgan ulkan ma‘naviyat sarchashmalaridir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir asarlari nafaqat o‘z davri, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim saboqlar beradi. Shu bois shoirning nazmiy va nasriy asarlarini tadqiq va talqin etish uning hayotlik chog‘laridanoq boshlangan. Bunga shoir va uning zamondoshlari asarlarida dalillar ko‘p. Ulug‘ shoir ijodini o‘ziga xos ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish, asosan, XX asrning 50-yillaridan boshlanganligi ilm ahliga ma‘lum. Shu davrda adabiyotshunoslik ilmi sohasiga Aziz Qayumov, Vohid Zohidov, Vohid Abdullaev, Hamid Sulaymon, Natan Mallaev, Abduqodir Hayitmetov kabi o‘nlab iqtidorli yoshlar kirib keldi va aytish mumkinki, ular navoiyshunoslik ilmining tamal toshini qo‘ydilar. Ayniqsa, Abduqodir Hayitmetovning navoiyshunoslik ilmining shakllanishi va rivojidadagi xizmatlari beqiyos. Zahmatkash olim shoirning hayot yo‘li va faoliyati, lirik merosidan tortib nasriy asarlarigacha, “Xamsa” dostonlaridan tortib diniy-ma‘rifiy va axloqiy-ta‘limiy asarlarigacha bo‘lgan keng ko‘lamdagi ijodi namunalarini o‘zgacha bir muhabbat va katta ishtiyoq bilan o‘rgandi. Yarim asrdan ziyod vaqt davomidagi izlanishlarning samarasi sifatida olimning “Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari”, “Navoiy lirikasi”, “Navoiyning ijodiy metodi masalalari”, “Navoiy dahosi”, “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan”, “Hayotbaxsh chashma”, “Navoiyxonlik suhbatlari”, “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kabi monografiya va maqolalar to‘plamlari dunyoga keldi. Ularda shoir ijodining keng qamrovli masalalari katta doiradagi ilmiy manbalarga tayangan holda tadqiq etilgan va hozirgi navoiyshunoslik sohasida ham ahamiyatli bo‘lgan ilmiy xulosalar bayon qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

Oliygohdagi tahsil yillarida Abduqodir Hayitmetovning “Alisher Navoiyning adabiy- tanqidiy qarashlari”, “Navoiy lirikasi ” kitoblarini ko‘p bora varaqlagan va ulardan bahramand bo‘lgan edik. Alisher Navoiyning ijodiy metodi, shoirning lirik merosi, xamsachilik rivojidadagi o‘rni va boshqa asarlari xususidagi tahlilu talqinlari katta taassurot qoldirgan edi.



Oliyohni tamomlagach, mumtoz adabiyotga bo‘lgan muhabbat, Navoiy ijodiga qiziqish meni O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga etakladi. Shu dargohda domla bilan ilk bora uchrashish baxtiga muyassar bo‘ldim va ularga shogird bo‘lish istagida ekanligimni aytdim. Kichik jussali, lekin unchamuncha odamni esankiratib qo‘yadigan salobatga ega ustoz bilan bo‘lgan dastlabki suhbatda nihoyatda hayajonlandim. Chunki Alisher Navoiydek ulug‘ shoir ijodi haqida o‘nlab kitoblar, yuzlab maqolalar yozgan mashhur navoiyshunos olimning etagidan tutib, shogird bo‘lish endigina oliyohni tugatgan talaba nazdida etib bo‘lmas orzudek bir gap edi. Domla mumtoz adabiyotga, jumladan, Navoiy ijodiga munosabatim va qiziqishlarim doirasi borasida suhbatlashdilar. Suhbat yakunida aspiranturaga kirishni maslahat berdilar. Men ish faoliyatidan ajralmagan holda sirtqi aspiranturaga hujjatlarimni topshirdim. Kirish imtixonlarini topshirib bo‘lgach, domla meni huzurlariga chaqirib, Alisher Navoiyning “Badoe’ ul- bidoya” va “Xazoyin ul- maoniy” devonlariga yozilgan debochalar bilan tanishib chiqing, dedilar. Shuningdek, Munis, Ogahiy, Nodira devonlarida ham debocha mavjudligi va boshqa mumtoz shoirlar ijodida ham debochalar uchrashi mumkinligini ta’kidladilar. So‘ngra dissertatsiya mavzusi haqida suhbatlashamiz, deb qo‘shib qo‘ydilar. Ustoz topshirig‘ini bajarish asnosida ko‘nglimda hajman kichkina devon debochalari haqida qanday qilib kattagina dissertatsiya yozish mumkin, degan hadik paydo bo‘ldi. Lekin o‘rinsiz xavotirlangan ekanman. Yillar o‘tib, debochalarni chuqurroq o‘rganganimdan so‘ng, ularda qo‘yilgan masalalar qamrovining nihoyatda kengligini, shoir hayoti va ijodini o‘rganishda birlamchi hamda eng muhim manba ekanligini angladim. Ustoz menga ajoyib mavzuni o‘rganishni tavsiya qilgan ekan.

Men mavzuni tadqiq etish jarayonida ustozdan katta saboqlar oldim. Aspirantura tahsilining ikkinchi yilida domla Navoiyning debochalardagi adabiy- nazariy qarashlari xususida maqola yozib keling, dedi. Maqolani tezda yozib, domlaga olib keldim. Lekin ustoz maqolani o‘qib chiqqach, anchayin tanqidiy fikr bildirdi. Maqola yozishga jiddiy va mas’uliyat bilan yondoshish, boshqa olimlarning fikrlarini takrorlamaslik, muayyan mavzu doirasida tadqiqotlar olib borgan olimlarning o‘rni va ketma- ketligi masalasiga e’tibor, mavzuga doir ilmiy- nazariy adabiyotlarni chuqur o‘rganish bilan bog‘liq mulohazalarini yozib qo‘limga berdilar va maqola yozish jarayonida ularga e’tibor berish zarurligini uqtirdilar. SHundan so‘ng debochalarni sinchiklab o‘rganishga, ularda qo‘yilgan masalalar doirasini belgilashga va tadqiq etishga kirishdim. Debocha devon tarkibining uzviy bir qismi bo‘lganligi bois devonchilik tarixini o‘rganish maqsadida E. E. Bertels, I. I. Braginskiy, Sadridin Ayniy, V. Abdullaev, V. Zohidov, N. Mallaev, Sh. Shomuhamedov kabi rus



sharqshunoslari va o‘zbek olimlarining tadqiqotlarini chuqur o‘rgandim, ma’lumotlarni qiyosladim, tahlil qilib umumlashtirdim. Nihoyat, “O‘zbek adabiyotida debocha” nomli kattagina hajmda maqola yozdim va ustoz e’tiboriga havola qildim. Maqolani o‘qib chiqqach, ustoz uning biror joyiga qalam tekkizmasdan jurnal tahririyatiga topshirishimni aytdilar. Bu maqola yuqoridagi nom bilan “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1986-yil 6-sonida bosh maqola sifatida e’lon qilindi. Bu ustozdan olgan birinchi sabog‘im samarasi edi.

Dissertatsiyani yozib tugatgach, ma’qul bo‘larmikin, degan ming istiholada uni domlaga topshirdim. Ustoz ishni qo‘lyozma holida ko‘rib chiqdilar va ishning kirish hamda xulosa qismini, uchinchi bobning debocha kompozitsiyasi bilan bog‘liq bandidagi fikrlarni chuqurlashtirish va mukammallashtirish zarurligini ta’kidladilar. O‘sha paytdagi quvonchimning cheki yo‘q edi. Talabchanlik ustozning eng muhim fazilati edi. Ana shu fazilatlari tufayli men Alisher Navoiy ijodini tadqiq qilish jarayonida ko‘p narsalarni o‘rgandim, ilm olamiga qadam qo‘ygan har bir inson, avvalo, o‘zida ulkan mas’uliyat hissini tuymog‘i, har qanday ishga jiddiy yondoshmog‘i lozimligini angladim. Yillar o‘tib o‘ta salobatli va talabchan ustozning nihoyatda kamtarin, kamsuqum, otaday mehribon inson ekanligiga amin bo‘ldim. Har safar domlanning xonadonlariga borganimda, ustoz ish stolining ustida o‘tirgan bo‘lardir. Bir kuni borsam, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” uchun Alisher Navoiy haqida maqola yozib o‘tirgan ekanlar. Maqolada shoir hayoti va ijodiga doir juda katta hajmdagi ma’lumotlar mohirona umumlashtirilgan ediki, bu olimdan chuqur bilim va ulkan mehnat talab qilganligi shubhasizdir. Ustoz bilan maqola xususida suhbatlashdik. So‘ngra suhbat Navoiy lirikasi va uning mavzu ko‘lami doirasida davom etdi. Men shoirning “G‘aroyib us- sig‘ar” devonidan o‘rin olgan yorning qo‘liga bog‘langan “yog‘lig‘” – ro‘molcha tafsili bilan bog‘liq g‘azaliga domlanning e’tiborini tortdim. Ustoz: “Navoiy devonlarini shuncha varaqlab, shu g‘azalga e’tibor qilmagan ekanman, shoirning juda chiroyli g‘azalini topib olibsiz”, deya lutf qilganlari yodimda. Suhbat davomida shoirning “Badoe’ ul- bidoya” devoni debochasida o‘z g‘azallarini hamd, na’t, oshiqona, ma’rifatomiz va mav’izatangiz g‘azallar tarzida besh guruhga ajratganligi, lekin ishqiy g‘azallarining o‘zi ham mavzu jihatidan rang- barangligi, xususan, devonlarda ma’shuqaning qoshi, ko‘zi, yuzi, labi, sochi, qaddi- qomati, kiyimi bilan bog‘liq yuzlab g‘azallar mavjudligi haqida fikrlashdik. Domla Porso Shamsiyev ham mazkur masala doirasida bir maqola yozgan edi, siz ham shu yo‘nalishida ilmiy izlanishlaringizni davom ettirsangiz dedilar. O‘zlari ham menga dasturilamal bo‘ladigan “Alisher Navoiy ijodida mavzularga bo‘lish va tanlash prinsiplari” nomli maqola yozdilar.

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Ustozning rafiqalari Halimaxon aya ham nihoyatda halim, shirimso‘z, mehribon ayol edilar. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi bo‘lganliklari sababli ular ham suhbatga qo‘shilib ketar edilar. 1947-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan ilk hikoyalari bois Abdulla Qahhorning e’tirofiga sazovor bo‘lgan ustoz 90-yillardan badiiy ijod sohasida ham qalam tebrata boshladilar. Shu bois har safar respublika matbuotida chop etilgan yoxud yangi yozilgan g‘azallarini stolning ustiga qo‘yib, “o‘qib chiqiqng-chi, qanday chiqibdi”, derdilar. Bunday maroqli suhbatlardan ulkan manaviy ozuqa olam-olam zavq-shavq olardim.

Nazarimda uzoq yillar Navoiy ijodini tadqiq va targ‘ib etganliklari uchun ustoz siymosida ham ulug‘ shoirga xos fazilat-u hislatlar mujassamdek tuyulardi. “Buyuklik oddiylikda” degan azaliy haqiqat ko‘pchilikka ayon. Abduqodir Hayitmetov domla tom ma’noda buyuklikning cho‘qqisiga yetgan, zamondoshlari, shogirdlari uchun hayotdagi sokin, sobit qadamlari, ilm yo‘lidagi zalvorli odimlari bilan ko‘p jihatdan saboq bo‘la oladigan samimiy va mehribon inson kamtarin va zahmadkash olim edilar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Abduqodir Hayitmetovdek insonga shogird bo‘lganimdan va o‘zimdagi ko‘p ijobiy jihatlar uchun ustozdan bir umr minnatdorman.

